IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059

VOL.3 № 6 2026

SAID AHMAD IJODINI O‘RGANILISHIGA DOIR

Hamraeva Mohira Ummatovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya
Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Said Ahmad (Saidahmad Husanxo‘jayev) ijodining adabiyotshunoslikda o‘rganilish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda adib ijodiga bag‘ishlangan monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar va bibliografik manbalar qiyosiy tahlil asosida ko‘rib chiqilgan. Xususan, Umarali Normatovning “Said Ahmad”, Shoira Axmedovaning “Yumor jilolari” monografiyalari, “Said Ahmad hajviyotida badiiy mahorat” mavzusidagi tadqiqotlar hamda Abdimurot Nomozovning “Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasining komik tabiati (Said Ahmad va O‘lmas Umarbekov komediyalari asosida)” nomli dissertatsiyasi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, B. Yo‘ldoshevning “Said Ahmad: bibliografiyasi”, Ortiqali Nomozovning “Said Ahmadning chorbog‘i”, O‘tkir Hoshimovning “Said Ahmad safarda: hazil-hangomalar, suhbat” asarlari, O. Sharafiddinovning “Xalq sevgan adib” maqolasi hamda “Said Ahmad san’ati: zamondoshlari mashhur adib haqida” kitobidagi fikr-mulohazalar o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida Said Ahmad ijodining xalqchillik, yumor, satira, komizm va badiiy mahorat kabi jihatlari adabiyotshunoslikda keng tadqiq etilgani hamda adib merosining o‘zbek adabiy jarayonidagi muhim o‘rni yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: badiiy mahorat, estetik ideal, adabiy portret, ijodkor shaxsiyati, xalqchillik, komizm, tanqid, satirachilik, yumor, kulgi estetikasi.

К ВОПРОСУ ИЗУЧЕНИЯ ТВОРЧЕСТВА САИДА АХМАДА

Хамраева Мохира Умматовна
Джизакский государственный педагогический университет, исследователь

Аннотация
В данной статье анализируются исследования, посвящённые творчеству одного из выдающихся представителей узбекской литературы Саида Ахмада (Саидахмада Хусанходжаева). На основе сравнительного анализа рассматриваются монографии, диссертации, научные статьи и библиографические источники, посвящённые жизни и творчеству писателя. В частности, изучаются монографии Умарали Норматова «Саид Ахмад», Шоиры Ахмедовой «Оттенки юмора», исследования по теме «Художественное мастерство в сатирическом творчестве Саида Ахмада», а также диссертация Абдимурота Номозова «Комическая природа современной узбекской драматургии (на материале комедий Саида Ахмада и Ульмаса Умарбекова)». Кроме того, анализируются труды Б. Йулдашева «Саид Ахмад: библиография», Ортикали Номозова «Сад Саида Ахмада», книга Уткира Хашимова «Саид Ахмад в пути: шутки, беседы», статья О. Шарафиддинова «Любимый народом писатель» и сборник «Искусство Саида Ахмада: современники о выдающемся писателе». В результате исследования показано, что в литературоведении широко изучены такие аспекты творчества писателя, как народность, юмор, сатира, комизм и художественное мастерство, а также раскрыто его значение в развитии узбекской литературы.
Ключевые слова: художественное мастерство, эстетический идеал, литературный портрет, личность писателя, народность, комизм, критика, сатирическое творчество, юмор, эстетика смеха.

ON THE STUDY OF SAID AHMAD’S CREATIVE WORKS

Hamraeva Mohira Ummatovna
Jizzakh State Pedagogical University, Researcher

Abstract
This article analyzes a number of literary studies devoted to the works of Said Ahmad (Saidahmad Khusankhojayev), one of the prominent figures of Uzbek literature. The research examines monographs, dissertations, scholarly articles, and bibliographic sources dedicated to the writer through a comparative analytical approach. Particular attention is paid to Umarali Normatov's monograph "Said Ahmad", Shoira Akhmedova's "Shades of Humor", studies on "Artistic Mastery in Said Ahmad's Satirical Works", and Abdimurot Nomozov's dissertation "The Comic Nature of Contemporary Uzbek Drama (Based on the Comedies of Said Ahmad and O'lmas Umarbekov)". The article also reviews B. Yo'ldoshev's "Said Ahmad: A Bibliography", Ortiqali Nomozov's "Said Ahmad's Garden", O'tkir Hoshimov's "Said Ahmad on a Journey: Humorous Stories and Conversations", O. Sharafiddinov's article "A Writer Loved by the People", and the collection "The Art of Said Ahmad: Contemporaries on the Famous Writer". The study concludes that literary scholarship has extensively explored such aspects of Said Ahmad's творчество as artistic mastery, humor, satire, comic expression, and national spirit, highlighting the writer's significant place in Uzbek literary history.
Keywords: artistic mastery, aesthetic ideal, literary portrait, writer's personality, national spirit, comic expression, criticism, satire, humor, aesthetics of laughter.

O'zbek adabiyotshunosligida "Buyuk xizmatlari uchun", "Do'stlik" ordenlari hamda "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston xalq yozuvchisi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" kabi sharafli unvonlar sohibi Said Ahmad (Saidahmad Husanxo'jayev) ijodi "ko'p va xo'p" o'rganilgan.
Xususan, adib ijodi haqidagi ilk maqola va taqrizlar uning asarlari matbuotda e'lon qilina boshlagan 1940–1950-yillardanoq paydo bo'ldi va ularda asosan yozuvchining xalq hayotini haqqoniy tasvirlash mahorati, mehnatkash insonlar obrazini yaratishdagi yutuqlari hamda hayotiy voqelikka munosabati tahlil qilinganligini kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

1960–1980-yillarda yozuvchi ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lami yanada kengaydi. Mazkur tadqiqotlar ichida Umarali Normatovning 1971-yilda nashr etilgan "Said Ahmad" [1] nomli adabiy portreti dastlabki monografik tadqiqot bo'lib, unda adibning hayoti, ijodiy shakllanish jarayoni, hikoyachilik mahorati, yumor va satirasi, dramaturgiyasi hamda romanchiligi ilmiy-tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan.
U. Normatovning eng muhim kuzatishlaridan biri Said Ahmadning milliy xarakter yaratish mahorati haqidagi fikrlari bo'lib, olimning ta'kidlashicha, yozuvchi qahramonlari nafaqat muayyan shaxs, balki xalqning milliy xususiyatlarini ham o'zida mujassam etadi.
Shu o'rinda aytish joizki, adabiyotshunos olim U. Normatov tadqiqotida Said Ahmadning dastlabki hikoyalaridan tortib, "Ufq" roman-trilogiyasigacha bo'lgan ijodiy taraqqiyotini izchil kuzatadi va uning badiiy mahoratining o'sish bosqichlarini ko'rsatib beradi. Natijada u yozuvchini xalq hayotini chuqur biladigan, milliy xarakterlarni mahorat bilan yarata oladigan adib sifatida yuqori baholaydi.
Shuningdek, olim Said Ahmad ijodining muhim fazilatlaridan biri sifatida xalqona til va uslubni ko'rsatib, yozuvchi asarlarida xalq maqollari, matallar, iboralar va jonli so'zlashuv nutqidan unumli foydalanganligini ochib beradi. Adabiyotshunos olim fikricha, xalqona til nafaqat asarning milliy ruhini kuchaytiradi, balki qahramon xarakterini ochishga ham xizmat qiladi.
Shu jihatdan Said Ahmad nutqni individuallashtirish san'atini yaxshi egallagan adib sifatida har bir asarida qahramonlarning o'z yoshi, kasbi, dunyoqarashi va ijtimoiy mavqeiga mos ravishda gapira olganligini e'tirof etadi. Olimning ta'kidlashicha, bu xususiyat asarlarda tabiiylik va ishonchlilikni ta'minlab, kitobxonni voqealar ichiga olib kiradi.
Shuningdek, mustaqillik yillariga kelib, Said Ahmad ijodiga yangicha yondashuv asosida baho berildi [2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9].

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Adabiyotshunos olima Sh. Ahmedovaning “Said Ahmad hajviyotida badiiy mahorat” mavzusidagi tadqiqotida yumorning badiiy tabiati, kulgi vositalarining estetik vazifasi, hajviy obraz yaratish tamoyillari hamda o‘zbek adabiyotida yumor an’analari tadqiq etilgan. Dissertatsiyada muallif yumorning inson ma’naviy hayotidagi o‘rnini, uning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi. Said Ahmad ijodini o‘rganishda mazkur tadqiqot muhim nazariy manba sifatida xizmat qiladi. Chunki adib hikoyalari, feletonlari va komediyalarida yumor yetakchi badiiy vositalardan biri hisoblanadi.

Sh. Ahmedova yumorni voqelikni anglash va inson xarakterini ochishning ta’sirchan usuli sifatida baholaydi. Olima “Yumor jilolari” asarida ta’kidlaganidek, haqiqiy badiiy yumor inson xarakteridagi nuqsonlarni fosh etish bilan birga, undagi ijobiy fazilatlarni ham namoyon etadi. Bu xususiyat Said Ahmad ijodida ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Adib kulgi vositasida inson tabiatidagi kamchiliklarni ochib berar ekan, qahramonlariga nisbatan mehr va insoniy munosabatni saqlab qoladi. Shu jihatdan uning yumori xalqchillik va hayotiylik bilan ajralib turadi.

B. Yo‘ldoshev tomonidan tuzilgan “Said Ahmad: bibliografiyasi” yozuvchi hayoti va ijodiga bag‘ishlangan dastlabki muhim maxsus bibliografik ko‘rsatkich hisoblanib, unda adibning kitoblari va alohida nashrlari, matbuotda e’lon qilingan hikoya, qissa, roman va pesalari, yozuvchi ijodi haqida yozilgan maqola, taqriz, ilmiy tadqiqotlar, adabiy-tanqidiy materiallar va ijodkor haqidagi bibliografik ma’lumotlar jamlangan. Umuman olganda, bibliografiyada Said Ahmad ijodining 1940–1977-yillar oralig‘idagi manbalari tizimlashtirilgan.

Adabiyotshunos olim Abdimurot Nomozovning “Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasining komik tabiati (Said Ahmad va O‘lmas Umarbekov komediyalari asosida)” nomli nomzodlik dissertatsiyasida komiklikning badiiy tabiati, uni yaratish usul va vositalari Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Kuyov” va O‘lmas Umarbekovning “Kurort” komediyalari misolida aniqlanadi. Mualliflarning hayotiy nuqsonlarga munosabati ijobiy g‘oyaning ifodasi sifatida ular yaratgan komediyalar misolida, xarakter va konfliktning komik vaziyatlar yaratishdagi ahamiyati talqin qilinadi.

Adabiyotshunos olim Ortiqali Nomozovning “Said Ahmadning chorbog‘i” asarida adib shaxsiyati turli qirralarda yoritilib, uning insoniy fazilatlari, ijodiy dunyosi va adabiy merosi badiiy-publitsistik uslubda tahlil qilinadi. Muallif Said Ahmadni, avvalo, xalq farzandi, xalq dardi va quvonchini qalbiga jo etgan ijodkor sifatida tasvirlaydi. Muallifning ta’kidlashicha, adibning ijodiy muvaffaqiyatining asosiy sababi uning xalq hayoti bilan uzviy bog‘liqligidadir. Shu jihatdan qaraganda, kitobda Said Ahmad shaxsiyatining xalqchillik xususiyati yetakchi o‘rinni egallaydi.

Asarda yozuvchining oddiy insonlarga bo‘lgan mehri, samimiy munosabati va inson qadrini ulug‘lashi ko‘plab hayotiy lavhalar orqali yoritilgan. Adabiyotshunos olim adibning insonlarga nisbatan mehribonligi va bag‘rikengligini uning ijodiy tamoyillari bilan bog‘laydi. Muallif fikricha, yozuvchining asarlaridagi hayotiylik va ta’sirchanlik aynan ana shu insoniy fazilatlardan oziqlangan.

Kitobda adibning kamtarlik sifati ham alohida ta’kidlanadi. Said Ahmad o‘zining katta adabiy mavqeiga qaramay, hamisha oddiylikni saqlab qolgan inson sifatida tasvirlanadi. Muallif uning yosh ijodkorlarga munosabati, ularni qo‘llab-quvvatlashi haqidagi xotiralar orqali adibning ma’naviy qiyofasini ochib beradi.

Shuningdek, “Said Ahmadning chorbog‘i” asarida “chorbog‘” ramzi muhim badiiy ma’no kasb etadi. Bu obraz nafaqat adib yashagan muhitni, balki uning ma’naviy olamini ham ifodalaydi. Muallif Said Ahmad atrofida shakllangan ijodiy muhitni go‘zal chorbog‘ga qiyoslab, uning ma’naviy boyligi va ijodiy sermahsulligini ta’kidlaydi.

O. Nomozov talqinida Said Ahmad hayotning har bir voqeasidan badiiy xulosa chiqara oladigan nozikta’b san’atkor sifatida gavdalanadi. Adib uchun inson taqdiri, jamiyat hayoti va milliy qadriyatlar doimo ijod markazida turgan. Shuning uchun ham uning asarlarida xalq turmushi, milliy xarakter va ma’naviy qadriyatlar haqqoniy aks etgan.

Muallif yozuvchining ijodiy mehnatga bo‘lgan munosabatini ham yuksak baholaydi. Said Ahmad asarlarining xalq orasida keng ommalashishi tasodif emas, balki uzluksiz ijodiy izlanish va mehnat

mahsuli ekani ta'kidlanadi. Bu holat adib shaxsiyatining mehnatsevarlik va mas'uliyat kabi fazilatlarini namoyon etadi.

Kitobda Said Ahmad shaxsiyatining eng yorqin qirralaridan biri sifatida uning yumor tuyg'usi ko'rsatiladi. Muallif adibning hazil-mutoyibaga boy suhbatlari, hayotiy voqealarga o'ziga xos nigoh bilan qarashi haqida qiziqarli lavhalar keltiradi. O. Nomozov fikricha, Said Ahmad uchun yumor shunchaki kulgi vositasi emas, balki hayot haqiqatini ochishning ta'sirchan usulidir. Shu sababli uning asarlaridagi kulgi ortida inson taqdiri, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy muammolar mujassam. Bu jihat adib shaxsiyatidagi hayotsevarlik va donishmandlikning muhim belgisi sifatida talqin qilinadi.

Muallif esse va ocherklar orqali Said Ahmadning nafaqat yozuvchi sifatidagi mahoratini, balki inson sifatidagi fazilatlarini ham ishonchli tasvirlay olgan. Ortiqali Nomozov talqinida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Said Ahmad, avvalo, xalq dardi va orzu-intilishlarini chuqur his qilgan ijodkor sifatida gavdalanadi. Muallif adibning hayoti va ijodini xalq hayoti bilan bog'liq holda tahlil etadi. Kitobda keltirilgan kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, Said Ahmad xalq orasida yashagan, ularning quvonchi va tashvishlarini qalbidan o'tkazgan yozuvchi bo'lgan. Tadqiqotchi ta'kidlaganidek, adibning xalqchilligi uning asarlaridagi hayotiy obrazlar va milliy ruh orqali namoyon bo'ladi. Bu haqda adabiyotshunos U. Normatov ham shunday yozadi: "Said Ahmad ijodining asosiy manbai xalq hayoti va xalq ruhiyatidir" [1; 34].

Said Ahmad ijodining muhim xususiyatlaridan biri yumor va satira hisoblanadi. Ortiqali Nomozov ham adib shaxsiyatining mazkur qirrasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, yozuvchi hayot voqeliklarini kulgi orqali chuqurroq anglatishga muvaffaq bo'lgan. Adabiyotshunos olima Sh. Ahmedova ta'kidlaganidek, "Said Ahmad kulgisi insonni faqat kuldirib qo'ymaydi, balki o'ylashga ham undaydi" [3; 58]. Bu fikr Nomozov kitobidagi kuzatishlar bilan hamohangdir.

Ozod Sharafiddinovning "Xalq sevgan adib" nomli so'zboshisi Said Ahmad ijodiga berilgan yuksak adabiy-tanqidiy baholardan biri hisoblanadi. Muallif unda Said Ahmadni xalq hayotini chuqur bilgan, milliy xarakterlarni mahorat bilan yaratgan, o'zbek nasri va dramaturgiyasini boyitgan adib sifatida tavsiflaydi. Sharafiddinovning ta'kidlashicha, Said Ahmad asarlarining keng kitobxonlar ommasi tomonidan sevib o'qilishining asosiy sababi ularning hayotiyligi, xalqchilligi va samimiyatidadir. Shu bois "Said Ahmad xalq hayotining bilimdoni, inson qalbining nozik tadqiqotchisi sifatida adabiyotimizda munosib o'rin egallaydi" [7; 6].

Said Ahmad hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Said Ahmad san'ati: zamondoshlari mashhur adib haqida" kitobi xotiralar, maqolalar va adabiy mulohazalar to'plami hisoblanib, kitobni adabiyotshunos A. Jo'rayev to'plab, nashrga tayyorlagan, mas'ul muharriri I. Shoymardonov hisoblanadi. Kitobda adibni yaqindan bilgan yozuvchilar, shoirlar, adabiyotshunoslar va san'atkorlarning xotiralari jamlangan. Ushbu materiallar Said Ahmadning nafaqat ijodkor, balki inson sifatidagi qiyofasini ham yaqqol namoyon etadi. To'plamdagi xotiralarning aksariyatida Said Ahmadning xalqchillik fazilati alohida ta'kidlanadi. Zamondoshlar uni xalq hayotini chuqur bilgan, oddiy insonlarning dardi va quvonchini qalbidan o'tkaza olgan ijodkor sifatida tavsiflaydilar. "Said Ahmad san'ati: zamondoshlari mashhur adib haqida" to'plami Said Ahmad shaxsiyatini o'rganishda muhim adabiy-biografik manba hisoblanadi. Unda jamlangan xotiralar adibning ma'naviy qiyofasini har tomonlama ochib beradi.

Zamondoshlar talqinida Said Ahmad xalqchil, insonparvar, kamtar, samimiy va hayotsevar ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Uning shaxsiy fazilatlari ijodi bilan uyg'un holda namoyon bo'lganligi uchun ham adib xalq mehrini qozongan. Shu tariqa, mazkur to'plam nafaqat Said Ahmad hayotini o'rganish, balki uning ijodiy fenomenini anglashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, adabiy portret janrining qimmatli namunasi sifatida baholanadi.

O'tkir Hoshimovning "Said Ahmad safarda: hazil-hangomalar, suhbat" asari yozuvchi Said Ahmadning hayoti, safarlari, suhbatlari va o'ziga xos hazil-mutoyibalarini yorituvchi adabiy-publitsistik asardir. Kitobda O'tkir Hoshimov ustozi va yaqin do'sti bo'lgan Said Ahmadning inson sifatidagi qiyofasini qiziqarli voqealar, hangomalar va suhbatlar orqali gavdalantiradi. Kitobda Said Ahmadning turli safarlardagi kuzatishlari, adiblar davrasidagi suhbatlari, hayotga

yumor bilan munosabati hamda insonlar bilan muloqot madaniyati haqida hikoya qilinadi. O‘tkir Hoshimov talqinida Said Ahmadning eng muhim fazilatlaridan biri xalqchillikdir. Muallif adibning oddiy insonlar bilan tez til topisha olishi, ularning dardi va quvonchini dildan his qilishi haqida ko‘plab lavhalar keltiradi. Said Ahmad qayerga bormasin, odamlar bilan muloqot qilishga intiladi, ularning hayotiga qiziqadi. Bu xususiyat uning ijodida ham yaqqol ko‘rinadi. Adib xalq orasidan chiqqan obrazlarni tabiiy va hayotiy tasvirlagani uchun kitobxonlar mehrini qozongan. Asarning asosiy qimmati shundaki, unda Said Ahmad rasmiy biografiya orqali emas, balki hayotiy voqealar va qiziqarli hangomalar vositasida tasvirlanadi.

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Said Ahmad hayoti va ijodini o‘rganishda keltirilgan tadqiqotlar, monografiyalar va kitoblar muhim manba bo‘lib, yozuvchining ma’naviy qiyofasini anglashga xizmat qiladi hamda adib asarlarining hayotiyligi, xalqchilligi, milliy ruh va ma’naviy qadriyatlarni teran aks ettirishi uning ijodini kelgusida ham ilmiy tadqiq etish uchun muhim manba bo‘lib qolishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Normatov U. Said Ahmad. Adabiy portret. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1971.
2. Ahmedova Sh. Yumor jilolari. – Toshkent: Fan, 1998. – 128 b.
3. Axmedova Sh. N. Said Ahmad hajviyotida badiiy mahorat: diss. ... filol. fan. nomzodi. – Toshkent, 1994. – 137 b.
4. Nomozov A. N. Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasining komik tabiati (Said Ahmad va O‘lmas Umarbekov komediyalari asosida): diss. ... filol. fan. nomzodi. – Toshkent, 1994. – 129 b.
5. Yo‘ldoshev B. Said Ahmad: bibliografiya. – Samarqand, 1977. – 69 b.
6. Nomozov O. Said Ahmadning chorbog‘i: esselar va ocherklar. – Toshkent: Zarqalam, 2004. – 120 b.
7. Sharafiddinov O. Xalq sevgan adib // Said Ahmad. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 5–11.
8. Hoshimov O‘. Said Ahmad safarda: hazil-hangomalar, suhbat. – Toshkent: Meriyus, 2011. – 151 b.
9. Said Ahmad san’ati: zamondoshlari mashhur adib haqida / to‘plab, nashrga tayyorlovchi A. Jo‘rayev; mas’ul muharrir I. Shoymardonov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 288 b.